



**DASTGOHLI RANGTASVIR TA'LIMIDA BITIRUV MALAKAVIY
ISHINING AMALIY JARAYONLARI**

Shodiyeva Shoirra Erkin qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Rangtasvir" kafedrasi o'qituvchisi

sh.shodiyeva@kiut.uz

Annotatsiya: Ushbu tezisda "Dastgohli rangtasvir" yo'nalishi talabalarining kompozitsiya asarlarini (bitiruv malakaviy ishlarini) yaratish bosqichlarini yoritishga qaratilgan. Bu mavzuni o'rganishdan asosiy maqsad bakalavr darajasini olish uchun badiiy san'at turlarida bitiruv malakaviy ishining amaliy qismida yuzaga keladigan turli masalalar va ularning yechimi borasidagi fikrlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Bitiruv malakaviy ishi, amaliy qismi, kompozitsiya, rangtasvir, eskiz, qoralama.

Аннотация: В данном тезисе рассматриваются этапы создания композиционных произведений (выпускных дипломных работ) студентов направления «**Станковая живопись**». Основная цель изучения этой темы — **рассмотреть** различные вопросы, возникающие в процессе выполнения практической части выпускной квалификационной работы в области изобразительного искусства для получения степени бакалавра, а также предложить пути их решения.

Ключевые слова: выпускная дипломная работа, практическая часть, композиция, живопись, эскиз, набросок.

Kirish: O'zbek xalqining o'tmishi bevosita Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bilan o'zaro bog'liqligi ma'lum. Aynan, san'at tarixidan yillar davomida yig'ilgan ma'lumotlar silsilasida ham uzviy mushtaraklikda ko'rinadi. Ushbu maqolada dastgohli rangtasvir yo'nalishi talabalarining kompozitsiya asarlarini (bitiruv malakaviy ishlarini) yaratish bosqichlarini yoritishga qaratilgan. Bu mavzuni o'rganishdan asosiy maqsad bakalavr darajasini olish uchun badiiy san'at turlarida



bitiruv malakaviy ishining amaliy qismida yuzaga keladigan turli masalalar va ularning yechimi borasidagi fikrlar yoritiladi va tasviriy san'at asarining yoshlar ongida jiddiy ijodiy ish ekanligi tushunchalarini shakllantirishdan iboratdir. Zotan ajdodlarimiz yaratgan tasviriy, amaliy bezak san'ati, shuningdek, me'morchilik yodgorliklari shu o'rinda rangtasvir san'ati asarlari tarixning jonli va ishonchli ko'zgusi sanaladi. Tasviriy san'atning mo'jizali sirlari shundaki, ijodkorlar yaratgan ijod namunalari sarhad va makon tanlamaydi. Shuning uchun ham insonlar qaysi millatga mansub bo'masin, qaysi hududda yashamasin ijod olamidan birdek bahramand bo'lishadi. San'atkorning ezgulik tarqatuvchilik vazifasi esa hamma mintaqalarda o'zgarmasdir.

Asosiy qism: Ushbu tezisda Tasviriy san'atning "Dastgohli rangtasvir" sohasida bitiruv malakaviy ishi amaliyoti haqida bo'ldi. Aynan Tasviriy san'atda dastgohli rangtasvir kompozitsiya asarini bitiruv malakaviy ishi yaratish jarayoniga jiddiy yondashishlari zarur. Talabalar o'zlarining 4 yillik o'qishi davomida bu sohadagi barcha nazariy va amaliy yangiliklardan qolaversa, ularning yaratilish tarixlaridan xabardor bo'lishlari lozim. Juda kop kuzatuvlar va izlanishlar natijasida 3 bosqich o'quv yilida talabalar o'zlariga qiziqarli va dolzarb bo'lgan kompozitsiya asarini yaratishdan oldin 3 yillik izlanishlari natijasida ilmiy rahbari bilan hamjihatlikda, bitiruv malakaviy ishi mavzulari tanlanadi va shu asosida amaliy qismi uchun dastgohli rangtasvir asari kompozitsiyasi yaratish jarayonlari boshlanadi. Biz bu maqolada bitiruv malakaviy ishidagi nazariy qismiga oid masalalarga to'xtalmagan holatda, asosan amaliy qismidagi kompozitsiya asari yaratish jarayonlarini ko'rib chiqamiz.

Avvalo, talaba ishni matetiallar to'plashdan boshlaydi. Tarixiy manbaalarga va kitoblarga murojat qiladi. Ustozlar hamda ilmiy rahbaridan ham juda kop ma'lumotlar oladi. Albatta izlanishlari natijasida, kichik eskiz va qoramalar uchun yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lgandan so'ng, asosiy ish uchun ya'ni bitiruv malakaviy ishi (Keyingi qatorlarda BMI) uchun eskizlar tayyorlashni boshlaydilar.



BMI uchun eskizlar ilmiy rahbar bilan muhokama qilinadi. Izlanuvchining bajargan eskiz va qoramalaridan eng ma'quli saralanib, eskiz formati aniqlanadi.

Eskizlar har xil ton (tuslanish)larda bajariladi. Ton(tuslanish) yechimi amalga oshgach, ilmiy rahbar tanlovi asosida undan bittasi rangga qidirish uchun tavsiya beriladi. Ya'ni BMI uchun tanlangan eskizning rangdagi yechimlari jarayoni boshlanadi. Bu jarayonda talaba har xil rangli koloritlarni va etyudlarni amaliyotda bajarishi zarur. Bajarilgan rangli qidiruvlardan so'ng eskiz asosida kichik kartina asarini yaratish bosqichlari boshlanadi. Kichik kartinani yaratishdan asosiy ko'zlangan maqsad, talaba katta hajmdagi kompozitsiya asarida qiyinchiliklarga kamroq duch kelishi va asosan katta hajmli ishni ushbu kichik kartinada his qilishi va xatolar ustida ishlashi, tafsilotlarini aniq tasvirlashga erishi ahamiyatli jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham eskizdagi voqelikni necha baravar kattalashtirgan bo'lsalar, o'sha o'lchamga mos va to'g'ri keluvchi kompozitsion yechimlarini aniqlagan holda, eskiz siluetini yoki dog'ini to'g'ri joylashtirish muhim vazifalardan biridir. Bitiruv malakaviy ishi keying bosqichlaridan biri bu rangtasvir asari uchun materiallar va texnologiyalarni tanlash va uni amaliyotga tadbiq etish. Asosiy kompozitsiya asari o'lchamlari aniqlanib, unga mato turi tanlanadi. Katta hajmdagi bajariladigan asarda ishlatiladigan matoni tanlashda ishlash qulayligini va ish ancha vaqtgacha saqlanib qolishini inobatga olish zarur.

Xulos: Quyida bitiruv malakaviy ishi yaratilishi haqida qisqacha ketma-ketligi ko'rsatiladi:

1. Xolst yani matoni ramaga yaxshilab tortiladi.
2. Ustidan karton qismi tortiladi.
3. Tayyor karton xolatini matoga bostirib chiqiladi.
4. Ilmiy rahbar tasdiqlagan kolorit bo'yicha rang berish bosqichiga o'tiladi.
5. Tasdiqlangan rangli eskiz asosida har bir detal (tafsilot) bilan ishlab chiqiladi.
6. Rang berish (Rangda ochish).
7. Barcha asosiy obrazlar va holatlar ustida ishlanadi.



8. Eskiz bilan solishtiriladi va yaxlitlikka olib kelinadi.

9. Ishni yakunlash bosqichi.

BMI kompozitsiya asarini himoyadan keyin ham o'zining sifati bilan uzoq yillar xizmat qilishini ta'minlashiga ham e'tibor beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Xudayberganov R.A. "Kompozitsiya". O'quv qo'llanma. - T.: "Sharq" 2007 - 203 b.*
2. *Abdullayev S.A. "Datgohli rangtasvirda kompozitsiya muammolari". O'quv qo'llanma. - T.: TGH, 1996. - 75 b.*
3. *Xasanova N.S. XX asr O'zbekiston badiiy ta'limi. — T.: San'at. 2014*